

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING DAVLAT O'QUV  
DASTURIDAGI BOLALAR JISMONIY RIVOJLANISH TALABLARINI  
BAJARISH METODLARI.**

**Методика обеспечения требований физического развития детей в  
государственной программе дошкольного образования.**

**Methods of meeting the requirements of children's physical  
development in the state curriculum of preschool education.**

**Nizamova Surayyo Shavkat qizi**

**JDPI Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va  
metodikasi magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturidagi bolalar jismoniy rivojlanish talablarini bajarishda metodlari haqida fikr yuritilgan.

**Аннотации:** В данной статье рассматривается значение иностранного языка в обеспечении требований физического развития детей в рамках государственной программы дошкольного образования.

**Annotation:** This article discusses the importance of a foreign language in meeting the physical development requirements of children in the state curriculum of preschool education.

**Tayanchso'zlar:** jismoniy tarbiya, kompleks, tashabbuskor, ilmiy mashg'ulotlar, kasbiy kompetentlik.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, комплекс, инициатива, научная, учебная, профессиональная компетентность.

**Key words:** physical education, complex, initiative, scientific, training, professional competence.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi o'rganadigan masalalar doirasi keng. Shuning uchun tadqiqot olib faqat pedagogik metodlardan emas, balki aralash fanlar- sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, bioximiyada va vrach nazoratida foydalaniladigan metodlar ham qo'llaniladi. Bulardan tashqari jismoniy tarbiyasida

nazariyasida nazariy tahlil va umumlashtirish, pedagogik tekshiruv va tajriba metodlaridan foydalaniladi.

**Nazariy taxlil va umumlashtirish metodlari.** Har qanday tadqiqot adabiy manbalarini o'rganish, taxlil va umumlashtirishdan boshlanadi. Buning uchun tadqiqotchi kerakli adabiyotlar bilan tanishadi va o'ziga tahlil qilish uchun zarur adabiy manbalarni tanlab oladi, so'ng ularni o'rganish rejasini tuzadi, yozib olish va tahlil qilish metodikasini o'ylab oladi.

Nazariy tadqiqotlar uchun bu metodning o'zi kifoya qilishi mumkin. Shu tariqa jismoniy tarbiya nazariyasining u yoki bu masalasiga qarashlar qay tarzda rivojlanib borganini kuzatish mumkin.

Eksperimental tadqiqotlar uchun adabiyotlarni o'rganishda qaysi masalalar o'rganib chiqilgan, ular qay darajada yoritilgan va ulardan qaysilari yanada asoslanishini va tajribada sinab ko'rishni talab qilishni aniqlash zarur.

Jismoniy tarbiya nazariyasiga oid muhim ma'lumotlarni Makatabgacha ta'lim tashkilotlari xosimlari tuzgan tirli me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish paytida topish mumkin ( oylik va haftalik ish reja. jismoniy tarbiya mashg'ulotlari,ertalabki badan tarbiya , harakatli o'yinlar ning ishlanmasi, pedagogik kengash bayonnomalari ) / Bu hujjatlarni tahlil qilish paytida aniqlangan ma'lumotlardan foydalanishi mumkin.

Ma'lumotlarni top'plashda anketa va so'roq varaqalaridan ham foydalanish mumkin. Anketalarda savollar " ha" yoki "yo'q" degan qisqa javoblar qilib olinadigan qilib qo'yiladi. Suroq varaqalaridagi javoblar batafsil tarzda keltirilmaydi, masalan , kishining yoshi, ish stsji, ma'lumoti, jismoniy mashqlar bilan shug'illanish sharoitining tasifnomasi va boshqalar. Hat ikki holda ham javoblar yozma bo'lishi kerak. Anketalar va so'roq varaqalari ko'proq taqiqotning boshlanishida qo'llaniladi va ular yordamchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqotchini qiziqtirgan materiallar oldindan ishlab chiqilgan reja bo'yicha o'tkaziladigan suhbat vaqtida ham yig'ilishi mumkin. Savollar bemalol bo'lishi va atroflicha javob olinadigan tarzda bo'lishi kerak. Masalan, tarbiyachi boladan: " Sen to'g'ri tura olasanmi? Qanday turishni ko'rsat – chi. Qani endi ayt-chi , qanday qilib to'g'ri turish kerak? " deb so'raydi.

**Pedagogik taqiqot metodlari.** Bu guruhdagi metodlar o'z ishiga pedagogik kuzatishlarni oladi. Kundalik taqiqotlardan farqli o'aroq u maxsus tashkil etiladi, aniq qo'yilgan vazifalarga, o'zining aniq belgilangan kuzatish predmetida , shuningdrk , kuzatiladifan ma'lumotlarni ( faktlarni ) hisobga olish tizimiga ega bo'ladi. Bunday taqiqotlar pedagogik jarayonning borishiga aralashmaydi. U kuzatishni o'tkazish rejasini oldin ishlab chiqdi. Bu rejada ma'lumotlarni to'plash izchilligi, ularni hisobga olish va ishlab chiqarish tizimi ( yozib olishdagi sharli belgilar ) ko'rsatiladi. Bundan tashqari kuzatuv natijasida tasdiqlanadigan yoki inkor etilishi kerak bo'ladigan ishchi gipotezasi aniqlab olinadi.Kuzatish tanlangan , aniq ( masalan, tushuntirishlar, ko'rsatmalar xarakteri, jismoniy mashqlartning bajarilish sifati) bo'lishi lozim.

Pedagogik kuzatishning afzalligi shundan iboartki, u ob'ektni tabiiy sharoitlarda o'rganish imkonini beradi.Bunda ma'lumotlar ob'ektiv bo'lishi va taqiqotlarning shaxsiy sifatlarga bog'liq bo'lmasligi kerak. Kuzatishlar jarayonida

kuzatilaydigan narsaning aniq qayd etish metodidan foydalanish zarur. Masalan, harakat texnikasi qayd etish uchun audio, va videoyozuvlardan foydalaniladi. Harakatning ayrim parametrlarini qayd etish uchun esa turli apparatlar (kuchni ulchovchi dinamometr) qo'llaniladi. Xronometrik metodi bilan jismoniy mashnlarni, u yoki bu harakatlarni bajarishga sarflanadigan vaqt, shuningdek, butun mashg'ulot yoki uning ayrim qismlari davomiyligi aniqlanadi. Xronometraj xronometriklar, qo'l sekundomerlari va boshqa asboblardan yordamida o'tkaziladi. Tarbiyachining nutqi stenografiya qilish, audio yozuv yo'li bilan qayd etib boriladi. Kuzatish natijalari jurnal, kundalik va bayonnomalarda qayd etiladi.

Kuzatuv jarayonida qayd etilayotgan ma'lumotlarga dastlab baho berib bo'rish zarur. Ularni ishlab chiqarib tasodifiy ma'lumot (fakt) larni bartaraf qilinishi, qonuniyatlar topilishi, umumlashmalar qilinib, xulosalar chiqarilishi lozim. Ma'lumot (fakt) larni o'rganilayotgan va umumlashtirilayotganda ular yetarli yoki bir-biriga zid bo'lishi va uzil-kesil xulosalar chiqarish uchun asos bermasligi kerak. Bunday holda kuzatishlar davom ettirilish kerak. Takroriy kuzatish chog'ida olingan ma'lumotlar asosida avval chiqarilgan xulosalar shubha ostiga olinishi va eng oldingi farazga, kuzatishni tashkil etishga tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Kuzatish o'z sog'ligi, ahvolini kuzatish xarakteridagi o'z-o'zini nazorat qilish shakli bo'lishi mumkin. O'z-o'zini kuzatish jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonida ham, ulardan keyin mashqlarni organizmga ta'sirini o'rganishda ham qo'llaniladi. Bunda faqat sub'ektiv sezgilardan emas, balki ob'ektiv ma'lumotlar: pul's ko'rsatkichi, qon bosimi va boshqalariga qarab ham ish tutilishi lozim. O'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari maxsus kundalikka yozib qo'yilishi va tahlil qilinishi kerak.

**Eksperimental (Tajriba sinov) metodlar.** Tipik sharoitlarning o'zgarish darajasiga ko'ra *tabiiy va laboratoriya* tajribalari bir-biridan farq qilinadi.

*Tabiiy eksperimental (tajribalarda)* mashg'ulotlar odatdagi shart-sharoitdan chetga chiqmasdan o'tkaziladi yoki chetga chiqsa chiqish juda kam bo'ladi.

*Laboratoriya eksperimenti* (tajribasi) maxsus sharoit yaratishdan va boshqa ta'sirlarni bartaraf qilish, tasodifiy hollarga chek qo'yish va zarur materiallarni yig'ishni to'xtatmaslikdan iborat.

Bundan tashqari eksperimenti (tajriba sinov) olib boruvchi hodisalar o'rtasidagi aloqalar sababini aniq ochish maqsadida sharoitni o'zgartirish mumkin. Zarur hollarda, masalan: faktlar etarli bo'lgan taqdirda eksperimentni takrorlash mumkin.

Eksperimental (tajribalar) muayyan faktlar yoki ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlash *mutloq* (absolyut) eksperimentga ergashish maqsadida ham o'tkazilishi mumkin.

Ayrim eksperiment (tajriba) larning maqsadi natijalarni (jismoniy tarbiya vositalarining samaradorligi, ta'lim usullari va boshqalar) qiyoslashga qaratilgan bo'ladi. Bunday eksperimentlar (tajribalar) **qiyosiy** deb ataladi.

Eksperiment (tajribalarni) o'tkazishdan oldin vazifalarni aniqlab olish va tadqiqot rejasini tuzish, ishchi farazini (gepoteza) tushish, eksperiment (tajriba)

mashg'ulotlari metodikasi, faktlarni qayd etish va qayta ko'rib chiqish usullarini ishlab chiqish zarur.

Qiyosiy eksperimentlarda ikki yoki uch turdagi guruhlar ( jinsi, yoshi, va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ) ishtirok etadi..Ulardagi mashg'ulotlar o'zining biror - bir omili bilan ( masalan, harakat ko'nikmalarini shakllantirishga yordamchi mashqlarning kiritilishi) farqlanadi. Eksperiment so'ngida harakatlarni o'zlashtirish bo'yicha qaysi guruhda yuqoriroq natijaga erishilgani aniqlanadi.

Eksperiment mashg'ulotlari o'tkaziladigan guruhni *eksperimental guruh* deb ataladi.Odatdagi metodika ( umumiy qabul qilingan ,an'anaviy ) bo'yicha shug'illanadigan guruh *nazorat guruh* deb ataladi.

Eksperiment natijalari juda ishonchli bo'lishi uchun almashma eksperiment degan sxema qo'llaniladi. Masalan, birinchi eksperimentda bir guruh birinchi metodika, ikkinchi guruh ikkinchi metodika bilan shug'illanadi. Ikkinchi eksperimentda birinchi guruh ikkinchi metodika bilan , ikkinchi guruh birinchi metodika bo'yicha shug'illanadi.

Uch va undan ortiq variantlar qiyoslanadigan tadqiqotlarda eksperimentlar uch va undan ortiq bosqichda o'tkaziladi va shu bo'yicha shug'illanadi.

Eksperiment tadqiqotlari bosqichlar bo'yicha o'tkaziladi. Dastlab materialni yig'ish metodikasini qo'llash eksperiment mashg'ulotlari metodikasini aniqlash bo'yicha *izlanish eksperimenti* tashkil etiladi. Shundan so'ng *tasdiqlovchi eksperiment* o'tkaziladi. Masalan harakat ko'nikmalari, jismoniy sifatlar, shuningdek , tajriba va nazorat guruhidagi bolalarning jismonit tarbiya haqidagi bilimlari rivojlanishining darajasi tekshiriladi.Shundan so'ng *o'rgatuvchi – tarkib toptiruvchi* eksperiment o'tkaziladi va mashg'ulotlar o'tkazishning ishlab ishlab chiqarilgan metodikasi tekshiriladi. Tajriba mashg'ulotlarini o'tkazish davomida kuzatishlar olib boriladi , foto va videoyozuvlar yordamida harakat texnikasi qayd etiladi. Kuzatish ma'lumotlari bayonnoma tarzda qayd etiladi.

Eksperiment tugagandan so'mg bolalar tasdiqlovchi eksperimentda ko'zda tutilgan parametrlar bo'yicha qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.Kuzatish ma'lumotlari miqdor va sifat jihatdan tahlil qilinadi, statik ( matematik) jihatdan ishlab chiqiladi.

Eksperiment otkazilgandan so'ng xulosa va tavsiyalarni amalda tekshirish tashkil etiladi.So'nggi bosqichda olingan natijalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishiga tadbiiq qilinadi.

*Matematik metodlar.* Tajriba-sinov ( eksperiment) materiali to'plangach, ta'sir etuvchi faktorlar asosida o'rganiladigan ko'rsatkichlarning o'zgarishidagi individual natijalar chiqarilgan xulosalarning to'g'riligini aniqlash ( ststik aniq umumiy ma'lumotlar olish) maqsadida matematik jihatdan qayta ishlash kerak. Eksperimental natijalarga ko'ra ko'pincha ayrim ko'rsatkichlar o'rtasidagi funksional bog'lanish o'rnatishga ehtiyoj tug'iladi. Bunday holda koorelyasiya, regressiya metodlari va depersion analiz qo'llaniladi.matematik qayta ishlash ma'lumotlari, diagrammalar va grafik holda keltirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

[1].Hamrayeva.A - Мактабгача таълим журнали, 2021 Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnoloik yondoshuv

[2].Development of professional competence of the future pedagogical teacher

X.A Farxadovna - European Journal of Molecular&Clinical Medicine, 2021

[3].Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni.A.F Hamrayeva - Academic research in educational sciences, 2021

[4]Хамраева, А. Ф. (2021). БЎЛАЖАК ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИНГ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1082-1086.

[5].Хамраева, А. Ф. (2021). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТАВФСИФИ. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1110-1114.